

ISSN: 3030-3877

ACD
2024

<https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>



Annals of clinical disciplines



VOLUME 2, ISSUE 3/1

2025

ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

2 ЖИЛД, 3/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 2, НОМЕР 3/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 2, ISSUE 3/1



ТОШКЕНТ-2025

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН | КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

№3/1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/0000-0000-2025-3/1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrası professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, DSc;
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinilaringologiya kafedrası professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrası professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc.
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadullojeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrası mudiri, DSc, dotsent

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrası professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrası mudiri, t.f.d., professor

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан
№ С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114,
г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva U.K., Rakhimova M.B.	
Pomegranate seed oil for ulcerative colitis.....	7
2. Abdurakhmonova Q., Rakhimbaeva G.	
Inflammatory biomarkers and insulin resistance in acute ischemic stroke of different etiologies...	12
3. Boymuradov Sh.A., Khatamov U.A.	
Biomechanical and clinical analysis of atypical counterforces in maxillofacial trauma from electromechanical impacts.....	19
4. Baymuratova A.Ch.	
Tizza bo'g'imi ichki strukturalari jarohatlanishlarini utt orqali klinik baholash va fizioterapevtik reabilitatsiyani optimallashtirish	26
5. Boboyev Sh.R., Saidov G.N., Keldiyorova Z.D.	
Tajribaviy oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishida yo'g'on ichak devoridagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tavsifi.....	32
6. Jumaeva G.A.	
Klinik farmakologiyada innovatsion o'quv modeli: talaba markazli yondashuv.....	38
7. Keldiyorova Z.D., Zaripova S.O.	
O'tkir respirator virusli infeksiyalar va torch- infeksiyasi bilan kasallangan bolalarda klinik-laborator o'zgarishlar.....	43
8. Khalikova F.Sh.	
Morphological structure of the thyroid gland of white rats in chemotherapy of breast cancer.....	51
9. Mirzayeva M.R., Yodgorova M.Sh.	
Latent course of liver fibrosis in patients with chronic hepatitis B: comparative evaluation of noninvasive diagnostic methods (APRI, FIB-4 and fibroscan).....	58
10. Muradimova A.R., Madjidova Y.N., Khidoyatova D.N., Sharipov F.R.	
Bioacoustic correction of cognitive impairment in stroke patients.....	69
11. Najmutdinova D.Q., Ismoilova Sh.S.	
2-tur natriy-glyukoza kotransportyori ingibitorlarini qo'llashda jigar fibroz ko'rsatkichlari va insulinga rezistentlik dinamikasi.....	74
12. Nazirxujayev F.A.	
Farg'ona viloyati aholisi orasida "O'rta yer dengizi parxezi"ni qo'llash orqali surunkali pankreatit xurujlari profilaktikasini optimallashtirish.....	79
13. Nurmatova O.A.	
Bolalarda nefrotik sindromning profilaktikasini takomillashtirish yo'llari (Farg'ona viloyati misolida).....	84
14. Ortiqboev J.O.	
Molecular genetic analysis of the renin–angiotensin system in chronic kidney disease.....	89

15. Oxunova M.J.	
Farg'ona viloyatida 3 yoshgacha bolalarda pnevmoniya rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillari.....	95
16. Rasulova N.R. Temirova N.R.	
Tajribaviy kimyoterapiya natijasida ayrisimon bezdagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tahlili.....	99
17. Raxmatullayeva G.K., Axmedova N.A., Kasimova M.B., Xudayberganova N.X.	
Oshqozon-ichak kasalliklarida so'rovnomas o'tkazish va uni o'rganish.....	108
18. Subkhanova Z.S., Raimkulova N.R.	
Interrelationship between gastroesophageal reflux disease and respiratory diseases: general pathogenetic mechanisms and modern research findings.....	112
19. Subxanova Z.S., Raimkulova N.R.	
Gastroezofageal refluks kasalligi, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi va bronxial astma: komorbidlikning dolzarb masalalari.....	115
20. Temirova M.B., Kasimova M.B., Axmedova N.A.	
Metabolik assotsirlangan jigar yog' kasalligida bemorlarning tana tuzilishini bioimpedance spektroskopiya yordamida baholash.....	118
21. Tukhtaeva N.Kh., Musayev H.N.	
Development of gastropathy against the background of nonsteroidal anti-inflammatory drugs in patients with rheumatoid arthritis against the background of virulent genes of helicobacter pylori.....	123
22. Абдуллаева У.К., Рахимова М.Б.	
Ярали колит хавф омиллари: замонавий қарашлар.....	128
23. Абдулхаков И.У., Абдулхаков М.И.	
Общеврачебная практика как эффективная модель профилактики неинфекционных заболеваний.....	132
24. Адизова С.Р., Носирова З.Ж.	
Преэклампсия оғирлашувида гемостаз тизимининг таъсири.....	143
25. Акрамов О.З., Аблязов О.В., Кадыров Ш.У.	
Инновационные подходы нейровизуализации при опухолях функционально важных участков мозга у детей.....	149
26. Аликулова Н.А., Ўринова Г.М.	
Мия инфаркти ва СМИ ўтказган беморларда клиник-функционал кўрсаткичлар динамикаси.....	156
27. Алимов А.А., Алимов А.В., Шарипов А.М., Шоикрамов Ш.Ш.	
Профиль инотропной поддержки у детей после коррекции врождённых пороков сердца: частота, дозы и динамика применения.....	166
28. Аллокулов Р.Р., Акрамов В.Р., Нуралиев Ф.Н.	
Кекса ва қари ёшдаги шахсларда гонартрознинг клиник-иммунологик жихатлари.....	172

29. Асадов Х.Ф.

Хирургия мигрени: сравнительный анализ двух хирургических методик лечения височной мигрени: нейроэктомия и декомпрессия ветви скуловисочного нерва.....182

30. Аскарров Ш.Ш., Салахитдинов Ш.Н.

Перспективные интервенционные технологии при тромботических осложнениях острого коронарного синдрома.....187

31. Гадаев А., Халимова Х., Гадаева Н.

Ўпканинг сурункали обструктив касаллиги ва артериал гипертензияда буйраклар дисфункцияси (адабиётлар шархи).....193

32. Гаффорова В.Ф., Ходжиева Д.Т.

Клинико-нейрофизиологические характеристики фебрильных судорог у детей.....200

33. Давлетова Ш.Б.

Роль микробиоты кишечника в развитии неврологических заболеваний у детей.....205

34. Даминов Б.Т., Ортикбоев Ж.О.

Уровень витаминов группы В и витамина Д у больных с хронической болезнью почек в зависимости от прогрессирования заболевания.....216

35. Джураев И.Б., Курбанов О.М., Бабаназаров У.Т.

Клинические проявления патологий желудка у больных в критическом состоянии в условиях искусственного дыхания.....221

36. Жалалова В.З.


Оптимизация восстановительных процессов при физических нагрузках с помощью спирулины: морфофункциональные и клинические аспекты.....229

37. Ибодуллаева Н.М.

Бачадон саратон олди касалликлари бўлган аёлларда неврологик ва психоэмоционал ўзгаришларнинг психосоматик жиҳатлари.....237

38. Иноятов А.Ш., Ражаматов Т.Р., Умаров Б.Я.

Функциональная и иммунологическая обоснованность применения щечного жирового лоскута при палатопластике в детском возрасте.....241



UO‘K: 616.36-003.826-02-053.82/84-07-08.

¹Temirova M.B., ²Kasimova M.B., ³Axmedova N.A.¹ORCID: 0009-0005-4801-1280²ORCID: 0000-0002-4533-4317³ORCID: 0009-0008-7152-1475

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, Uzbekistan

METABOLIK ASSOTSIRLANGAN JIGAR YOG‘ KASALLIGIDA BEMORLARNING TANA TUZILISHINI BIOIMPEDANCE SPEKTROSKOPIYA YORDAMIDA BAHOLASH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17352628>

ANNOTATSIYA

Metabolik assotsirlangan jigar yog‘ kasalligi (MAJYK) atamasi klinik amaliyotga nisbatan yaqinda, 2020-yilda kiritilgan bo‘lsa-da, bu nozologik birlik tezda gastroenterologlar orasida ilmiy muhokama va klinik kuzatuvning markaziy mavzusiga aylandi. Prospektiv tadqiqot MAJYK tashxisi tasdiqlangan 92 nafar bemor ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqotning maqsadi tana tarkibi parametrlari, jigar morfologik o‘zgarishlari va ularning og‘irlik darajasi o‘rtasidagi munosabatni baholashdan iborat edi. Olingan natijalar kasallikning metabolik va morfologik xususiyatlarini chuqurroq tavsiflashga yordam berdi.

Kalit so‘zlar: MAJYK, Bioimpedance, klinik tahlillar, tana tuzilishi, ultratovush tekshiruv

Temirova M.B., Kasimova M.B., Axmedova N.A.
Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

ASSESSMENT OF BODY COMPOSITION IN PATIENTS WITH METABOLIC ASSOCIATED FATTY LIVER DISEASE (MAFLD) USING BIOIMPEDANCE SPECTROSCOPY

ANNOTATION

Although the term metabolically associated fatty liver disease (MAFLD) was only introduced into clinical practice relatively recently, in 2020, this nosological entity has rapidly become a central focus of scientific discussion and clinical observation among gastroenterologists worldwide. A prospective study was conducted involving 92 patients with a confirmed diagnosis of MAFLD, with the objective of evaluating the relationship between body composition parameters, morphological changes of the liver, and the degree of their severity. The findings obtained provide a more profound characterization of the metabolic and morphological features of the disease and contribute to the refinement of potential markers for disease progression.

Keywords: MAFLD, bioimpedance spectroscopy, body composition, clinical analysis, visceral fat, ultrasonography

Темирова М.Б., Касимова М.Б., Ахмедова Н.А.

Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан

**ОЦЕНКА СОСТАВА ТЕЛА У ПАЦИЕНТОВ С МЕТАБОЛИЧЕСКИ
АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЗБП) С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БИОИМПЕДАНСНОЙ СПЕКТРОСКОПИИ****АННОТАЦИЯ**

Несмотря на то, что термин метаболически ассоциированная жировая болезнь печени (МАЗБП, англ. MAFLD) был введен в клиническую практику относительно недавно — в 2020 году, в настоящее время данная нозологическая форма занимает одно из центральных мест в фокусе научных дискуссий и клинических наблюдений гастроэнтерологов во всем мире. В ходе проспективного исследования 92 пациентов с установленным диагнозом МАЗБП была проведена оценка взаимосвязи между параметрами компонентного состава тела, морфологическими изменениями печени и степенью их выраженности. Полученные результаты позволяют более глубоко охарактеризовать метаболические и морфологические особенности заболевания, а также уточнить потенциальные маркеры

Ключевые слова: МАЗБП, биоимпедансная спектроскопия, состав тела, клинический анализ, висцеральный жир, ультразвуковое исследование.

Kirish. Metabolik assotsirlangan jigar yog' kasalligi (MAJYK) atamasi tibbiyotga yaqin orada (2020-yilda) kirib kelgan bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda butun dunyo gastroenterologlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. MAJYK—keng tarqalgan surunkali kasallik bo'lib, moddalar almashinuvi disfunktsiyasi asosida yog' hujayralarining jigarda yuqori darajada akkumulyatsiyasi bilan xarakterlanadi [1,9]. Kasallikning dolzarbligi uning organizmdagi metabolic jarayonning izdan chiqishi va uning oqibatida jigardagi jiddiy morfologik o'zgarishlar : jigar sirrozi, gepatosellular karsinoma rivojlanishi bilan bog'liq. Kasallikning vujudga kelishida organizmda lipidlar almashinuvining buzilishi, insulinrezistentlik, kislorodli stressning ortib ketishi muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi [1].

MAJYK bilan xastalangan bemorlarning tana tuzilishini klinik jihatdan keng qamrovli baholash maqsadida dunyo olimlari tomonidan bir qancha tekshiruv usullari qayd etilgan. Jumladan, ikki energiyali rentgen absorpsiometriya, magnit rezonans tomografiya (MRT), kompyuter tomografiya (KT). Biologik to'qimalarning elektr xususiyatlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar XVIII asr oxiridan boshlab muntazam ravishda rivojlanib kelmoqda [8]. Mazkur sohada dastlabki ilmiy izlanishlardan biri sifatida Thomasset tomonidan nina-elektrodlar yordamida bioimpedans o'lchovlari qo'llanilib, ular asosida inson organizmidagi umumiy tana suyuqligi miqdorini aniqlash imkoniyati nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, Nyboer tomonidan inson tanasining yog'siz massa hajmini baholash maqsadida to'rt yuzali elektrod tizimidan foydalanilgan bo'lib, bu yondashuv bioimpedans o'lchovlarining klinik amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan. Hoffer esa tritiiy suyultirish texnikasi natijalari bilan solishtirish asosida umumiy tana impedansi ko'rsatkichlari va organizmning umumiy suyuqlik tarkibi o'rtasida mavjud bo'lgan mustahkam korrelyatsiyani aniqlagan hamda mazkur bog'liqlikni ilmiy muomalaga kiritgan. [8].

Biologik to'qimalarning elektr xususiyatlari zamonaviy ilmiy tasnifga ko'ra elektr signali manbasining tabiati asosida faol javob va passiv javob shakllariga ajratiladi. Faol javob (bioelektrik javob) hujayralar ichida kechuvchi ion almashinuvi va elektrokimyoviy jarayonlar natijasida endogen elektr signallarining hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunga misol sifatida yurak faoliyatidan olinadigan elektrokardiografik (EKG) signallar hamda markaziy asab tizimining faoliyati bilan bog'liq elektroensefalografik (EEG) signallarni keltirish mumkin. Passiv javob esa biologik to'qimalarga tashqi manbadan beriladigan elektr toki ta'sirida yuzaga keladi va bioimpedans o'lchovlarining nazariy asosini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, bioimpedans

(biologik impedans) tushunchasi biologik to'qimalarning tashqi elektr toki o'tkazilishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyati sifatida izohlanadi [6].

Bioimpedans tahlil metodlarining invaziv bo'lmaganligi, texnologik jihatdan qulayligi, iqtisodiy samaradorligi va portativligi tufayli ushbu metod zamonaviy biomeditsina va klinik amaliyotda keng qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda bioimpedans tahlili asosida inson tana kompozitsiyasini aniqlash, organizmdagi suyuqlik muvozanatini baholash, shuningdek turli klinik patologiyalarni diagnostika qilish va monitoring qilishga oid ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Mialich va hamkorlari [7] bioimpedans tahlilining tana kompozitsiyasini baholash hamda surunkali kasalliklarni monitoring qilishdagi qo'llanilishiga oid keng qamrovli tahliliy sharh taqdim etib, amaliyotda keng qo'llaniladigan hisoblash tenglamalarini tizimlashtirgan. Biroq, ushbu ishda real vaqt rejimida ko'p chastotali (multi-sine) bioimpedans tahlili hamda bioimpedans vektor tahlili kabi zamonaviy metodlar yetarli darajada yoritilmagan. Shuningdek, Lukaski tomonidan bioimpedans tahlilining konseptual-modulli asoslari qayta ko'rib chiqilib, ularning fiziologik faoliyatni baholash va kasalliklarni prognozlashdagi nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan [4]. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan ko'p regressiyali yondashuvlar va fizik modellar shaxsiy o'lchovlarda cheklangan imkoniyatlarga ega ekani ham ta'kidlab o'tilgan. O'zining amaliyotga tatbiqining oson va qulayligi bilan Bioimpedance spektroskopiya (BIS) tekshiruv usuli bugungi kunda tibbiyotning turli sohalarida nafaqat bemorlarni balki, profilaktika maqsadida tibbiy ko'rikka murojaat qiluvchilarning ham tana tuzilishini baholashda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Ushbu maqolada MAJYK bilan xastalangan bemorlarning tana tarkibiy qismlari: Umumiy suvning miqdori (L), protein (kg), minerallar (kg), tanadagi yog'ning miqdori (kg, %), visseral yog' darajasi, bel va son nisbati, quruq va yog' massaning segmentlarga ko'ra taqsimotini o'rganib chiqildi. Bemorlarning yoshi, jinsi va jigarning ultratovush tekshiruvi (UTT) xulosalariga ko'ra natijalar farqi qayd etildi. [3].

Tekshiruv metodikasi shundan iboratki, teri yuzasiga joylashtirilgan elektrodlar orqali past amplitudali elektr toki yuboriladi va turli chastotalarda to'qimalardagi qarshilik (Z) darajalari o'lchanadi. Ushbu ma'lumotlar asosida qarshilik (R) va reaktans (Xc) hisoblanadi (R) to'qimalardagi suv va membrana strukturasi bilan bog'liq. Xc -bu elektr tokining **alternativ (o'zgaruvchan) tok** ostida to'qimalardan o'tishiga bo'lgan **qarshilikning induktiv yoki sig'imiylar komponenti** hisoblanadi [4].


Tadqiqot maqsadi: MAJYK bilan xastalangan bemorlarning tana tuzilishini BIS yordamida baholash va natijalarni jigarning yog'li gepatozi darajalariga ko'ra solishtirish.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqot prospektiv kogort tahlilini o'z ichiga olgan dizaynga ega. Prospektiv bosqichda, 2025-yil yanvaridan 2025-yil avgustgacha Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida MAJYK tashxisi qo'yilgan 92 bemor ro'yxatga olinib tekshirildi.


Inkluzion (qabul qilish) mezonlari: - 18 -59-yosh orasi bo'lishi, MAJYK tashxisi UTT va aniq klinik, laboratoriya va tasviriylar tekshiruv dalillariga asoslangan bo'lishi, MAJYK tashxisi qo'yilgan paytda to'liq gematologik ko'rsatkichlar mavjud bo'lishi. Ekzkluzion (istisno qilish) mezonlari: -59 yoshdan yuqori bemorlar, Virusli hepatitlar (B,C), Autoimmun hepatit, Qandli diabet 1-tip, Har qanday etiologiyali sirrozlar.

Natijalar. 92 nafar bemor ishtirok etgan prospektiv tahlilda 12 nafari (13%) erkak bo'lib, o'rtacha yoshi 34 ± 3 , ayollar 80 nafar (87%) o'rtacha yoshi 41 ± 5 yoshni tashkil etdi. Bemorlarning 24 nafari (26%) UTT xulosasiga ko'ra jigar yog'li gepatozi I darajasi, 32 nafari (34.7%) II daraja va 36 nafari (39.3%) III daraja aniqlandi. Bemorlar shu xulosalarga asosan 3ta guruhga ajratildi. Tekshiruv natijalarining o'rtacha qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-diagramma. MAJYK bilan xastalangan bemorlarning bioimpedance spektroskopiya tekshiruvi natijalari.



2-diagramma. Tanadagi protein, mineral va yog'm miqdori



3-jadval. Tanadagi muskul, visseral yog'ning o'rtacha miqdori .

Guruhlar	Muskul (kg)	Visseral yog' darajasi	Semirish darajasi %	Bel va son nisbati
I	23	11.5	117	0.9
II	27	16.3	144	1
III	32	22.4	184	1

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bemorlarning tana vazni va metabolic sindrom bir biriga bevosita bog'liq. Tanadagi visseral yog' darajasi ortishi bilan bemorlarda jigar yog'li gepatozi darajasi kuchayadi. O'z navbatida semirish darajasi ham foizlarda yaqqol ifodalangan va bu ko'rsatkich bel va son aylanasi nisbati indeksi bilan to'g'ri proporsional. Tanadagi muskul miqdori bemorlar ko'rsatkichini umumhisobda tahlil qilganda tana vazniga proporsional, biroq tekshiruv davomida 2 ta(2%) bemorda muskul massasi va umumiy tana vazni o'rtasida boshqa bemorlardan farqli natija kuzatildi. Bu misollarda tana vazni muskul va yog' hisobiga emas, suv hisobiga yuqoriligi aniqlandi.

Xulosa. Zamonaviy tekshiruv usuli bioimpedance spektroskopiya yordamida o'tkazilgan tadqiqotimiz o'zining noinvaziv va qulay bo'lishi bilan bemorlarga noqulaylik tug'dirmadi. MAJYK bugungi kunda ko'plab bemorlarni qiynab kelayotgan dolzarb xastalik bo'lganligi sababli har bir bemor chuqur klinik tekshiruvga muhtoj. Olib borilgan tadqiqotdan olingan aniq va informative natijalar bemor va shifokorga tananing tarkibiy qismlari haqida prognostic jihatdan ham ahamiyatga ega. Xuloslar shuni ko'rsatadiki, bemorlar tana -qismlaridagi o'zgarishlar, ya'ni yog' miqdorining oshishi, bel va son nisbatining buzilishi, semirish darajasining oshishi jigardagi jiddiy morfologik o'zgarishlardan xabar beradi va bu bemorlardan ogohlikni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. Assessment of the severity of ulcerative colitis: an effective pathway from invasive to non invasive diagnosis BIO Web of Conferences 121, 03010 (2024) GLSBIA 2024 P.1-4 Umida Abdullayeva1,*, Mirvasit Karimov2, Guzal Sobirova3, Dilnoza Khasanova1, Mekhriniso Ismatova1, and Mastura Mukhamedjanova1
2. Assessment of the clinical effectiveness of use of hymecromone in combination with ursodeoxycholic acid in biliary pathology. Experimental and Clinical Gastroenterology. 2024;223(3):
3. Development of Fully Synthetic Medical Database Shuffling Method Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics), 2024, 14543 LNCS, P. 55–64 Nasimov R., Nasimova N., Mumimov B., Sobirova G., Abdusalomov, A. ANN
4. Lukaski, H. Evolution of bioimpedance: A circuitous journey from estimation of physiological function to assessment of body composition and a return to clinical research. Eur. J. Clin. Nutr. **2013**, 67, S2–S9. ALS
5. Grimnes, S. Bioimpedance and Bioelectricity Basics; Academic Press: Waltham, MA, USA, 2011.
6. Mialich, M.S.; Sicchieri, J.M.F.; Junior, A.A.J. Analysis of body composition: A critical review of the use of bioelectrical impedance analysis. Int. J. Clin. Nutr. 2014, 2, 1–10.
7. Samanta Mayanin Pinto Gálvez a , Uriel García-Mora,... Body composition and phase angle by bioimpedance in patients with MAFLD, Gastroenterología y Hepatología 2022 № 45 536-542-bb.
8. Sami F. Khalil 1,2,3 , Mas S. Mohktar 1,2 and Fatimah Ibrahim 1,2,*
The Theory and Fundamentals of Bioimpedance Analysis in Clinical Status Monitoring and Diagnosis of Diseases25
9. Xamrayev A.A., Sobirova G.N., Temirova M.B. Metabolik assotsirlangan jigar yog' kasalligi atamasining tibbiyotga kirib kelishi va uning diagnostik hamda davolash choralarini takomillashtirishdagi ahamiyati. ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE №1 2025, 109-114-bet №1 |5
10. Дефицит витамина Д и экзокринная недостаточность поджелудочной железы: вопросы лечебной коррекции Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси № 11. 2023. Б. 15-17 Арипова Н.Н., Хамраев А.А., Собирова Г.Н.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году

Бухарским государственным
медицинским институтом

Выходит один раз в 3 месяца

Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт